

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.04.2025.T.20.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BEKBAULIEV RUSLAN ISMAIL ULI

YUQORI MUSTAHKAM VA NAMLIKKA CHIDAMLI
MODIFIKATSIYALANGAN GILGIPS BOG'LOVCHISI

05.09.05 – “Qurilish materiallari va buyumlari”

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**
**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Technical Sciences**

Bekbauliev Ruslan Ismail uli

Yuqori mustahkam va namlikka chidamli modifikatsiyalangan gilgips bog‘lovchisi
.....5

Бекбаулиев Руслан Исмаил улы

Модифицированные глиногипсовые вяжущие повышенной прочности и
водостойкости.....23

Bekbauliev Ruslan Ismail uli

Modified clay-gypsum binders with increased strength and water resistance
.....41

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works46

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.04.2025.T.20.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BEKBAULIEV RUSLAN ISMAIL ULI

YUQORI MUSTAHKAM VA NAMLIKKA CHIDAMLI
MODIFIKATSIYALANGAN GILGIPS BOG'LOVCHISI

05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5165 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asamatdinov Marat Orinbaevich

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotcent

Isakulov Bayzaq Razakovich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yusupov Xamza Ibadovich

texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/05.04.2025.T.20.12 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy, Nukus, O‘zbekiston, 230112),

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy, Nukus, O‘zbekiston, 230112).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil ___ kuni tarqatildi.
(2025 yil “__” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi)

A.T. Ilyasov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, texnika fanlari doktori, professor

D.M. Jumabaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

J.Q.Shnekeev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
arxitektura fanlari doktori, dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bino va inshootlarni barpo qilish uchun energiyatejamkor va energiyasamarali qurilish materiallaridan foydalanishga bo‘lgan talab ortmoqda ayniqsa gips bog‘lovchilarini turar joy binolarning xonalarida pardozbop, quruq suvoq ishlarida keng jalb etish tobora ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlarda — jumladan, Germaniya, Finlandiya, Yaponiya, AQSh, Gollandiya, Janubiy Koreya, Avstriya, Polsha, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Chexiya va Turkiyada — gips asosidagi qurilish mahsulotlarining yangi turlarini yaratish, ularning fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqot va innovatsion ishlanmalar amalga oshirilmogda. Bu yo‘nalishda mahalliy tabiiy va texnogen xom ashyolardan oqilona foydalanish, mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy asbob-uskunalar va samarali modifikatsiyalovchi qo‘shimchalarni ishlab chiqish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmogda. Shu bois, mavjud xomashyo bazasini kompleks o‘rganish, ilg‘or modifikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ekspluatatsion xususiyatlari yuqori bo‘lgan quruq suvoq qorishmalarini ishlab chiqish mamlakatimiz qurilish sohasida import o‘rnini bosish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish dolzarb masalardan hisoblanadi.

Jahonda sanoat chiqindilaridan unumli foydalanishga asoslangan quruq suvoq qorishmalarini ishlab chiqarish hamda shu orqali bino va inshootlarning issiqlik izolyatsiyalovchi, mustahkamlik va ishonchliligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmogda. Faol mineral qo‘shimchaning namlikka bardoshligini taminlaydigan, gil-gips bog‘lovchilariga maxsus tanlangan maqbul tarkib, aralashmalarning mustahkamligi va suvga chidamliligi oshirish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanmogda. Bunda maxalliy xom ashiyo asosidagi gips buyumlarining uzoqqa ba namlikka chidamliligi olovbardoshligi, mustahkamligi, issiqlik izolyatsiyalovchiligi xossalarini va binolarning ekologik tozaligini oshirish hamda devorbop materiallarning narxini pasaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish juda ham muhim va dolzarb vazifalardan hisoblanmogda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda qurilish sohasini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilanish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishga energiya va resurs sarfini kamaytirish, shuningdek, resurs hamda energiya tejamkor texnologiyalarni qurilish sohasiga keng tatbiq qilishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. “...“Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko‘rish zarur...”¹ kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, energiya tejamkor va ekologik toza va oldindan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

belgilangan xossalarga ega bo'lgan qurilish materiallarini ishlab chiqarish, mahalliy xomashyo asosidagi qorishma tarkibini ishlab chiqish uchun mavjud texnologiyalarni yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-son "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4198-son "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda qurilish sanoati bilan bog'liq boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurs tejamkorlik" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Jahon amaliyotida ko'pgina olimlar gips va gips tarkibidagi bog'lovchilarning suvga chidamliligini yaxshilash bilan shug'ullanishgan: A. V. Voljenskiy, A. V. Ferronskaya, P. A. Rebinder, V. F. Korovyakov va boshqalar. Kichik olimlar guruhi (N. S. Bogdanov, L. A. Zaxarov, K. S. Kutateladze, M. Z. Simonov, B. S. Sigler, A. M. Tkeshelashvili gips xom ashyosini olish va o'zgartirish xususiyatlari, usullari xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan..

Respublikamizda gips materiallari sohasidagi yetakchi olimlari-K.S. Axmedov, F.L. Glekel, T.A.Ataqo'ziyev, O.Asamatdinov, E.U.Qosimov, N.A. Samigov, A.I. Adilxodjaev Sh.N.Turemuratov, N.X.Talipov, A.A.To'laganov, I.M. Maxamataliev o'zining ilmiy-tadqiqotlarini olib borib, muhim ilmiy natijalarga erishgan.

Avval o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili modifikatsiyalovchi qo'shimchalar qo'llanilgan namlikka chidamli tarkiblarini ishlab chiqish, mustahkamligini oshirish uchun mineral qo'shimchalardan foydalanish orqali gilgips xossalarni optimallashtirishga qaratilgan masalalar yetarli darajada o'rganilmagan va yanada kengroq tadqiq qilishni talab etmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq №521 T/2 "Bazalt, metall va shisha tolalar asosida standartlarga mos hamda seysmik mustahkamlik konstruksiyasiga ega fibrobeton olish texnologiyasini yaratish" (2023-2024-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy gil gips (gips bog'lovchisi aralashgan) bog'lovchilar asosida faol mineral qo'shimchalar bilan kompozitsion gilgips bog'lovchilar ishlab chiqish va tarkibini yaxshilab, yumshash koeffitsienti va

siqilishga mustahkamligini oshirishni ta'minlaydigan materiallar, jumladan mineral bog'lovchi texnologiyasining formulasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gips kompozitsiyalarning suvga chidamliligini oshirish uchun tarkibiga aktiv mineral va sintetik qo'shimchalardan foydalanish tajribasini o'rganish;

gil gips bog'lovchilarning suvga chidamliligini o'zgaruvchang retseptura omillar va texnologik parametrlar bilan oshirishning mumkin bo'lgan usullarini o'rganish;

gil gips bog'lovchilari samaradorligini oshirishning nazariy tamoyillarini ishlab chiqish, gil gips bog'lovchilar orqali va ular asosidagi materiallardan gidravlik kompozitsiya yaratish;

gidravlik kompozitsiyaga ega gil gips bog'lovchilarning texnologiyalari va retsepturasini tadqiq qilish;

kompleks modifikatsiyalangan gil gipsning ishlab chiqilgan yangi tarkibini tajribaviy ishlab chiqarishga joriy etish va texnik iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida mahalliy xom-ashyolar Xo'jako'l konining gil gipsi asosidagi bog'lovchilarning tarkibiga faol mineral qo'shimchalar bo'lgan portlandsement, epoksid polimer qo'shimcha va superplastifikator asosidagi modifikatsiyalangan namlikka chidamli materiallar olingan.

Tadqiqotning predmetini gilgipsli komponent bo'lgan bog'lovchilarning faol mineral qo'shimchalar bo'lgan portlandsement, epoksid polimer qo'shimcha va superplastifikatordan foydalangan xolda tayyorlangan namlikka chidamli gilgips bog'lovchisining fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va texnik-iqtisodiy parametrlarini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda fizik-kimyoviy tahlil, infraqizil spektroskopik, elektron mikroskopik va differensial termogravimetrik tahlil, skanerli elektron mikroskop va elementar tahlil, shuningdek, tajriba natijalarini statistik matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

faol mineral qo'shimchaning namlikka bardoshligini taminlaydigan maqbul tarkib gil-gips bog'lovchilariga maxsus tanlangan portlandsement, superplastifikator S-3 va Tashkent traktor zavodi qolip uchun ishlatilgan qumi (kremnezemli) aralashmasi bilan birgalikda mexanik-kimyoviy faollashtirish orqali ishlab chiqilgan;

gil-gips bog'lovchilariga maxsus tanlangan optimal tarkibli faol mineral qo'shimcha xossalarni yo'naltirilgan tarzda rostlash uchun mo'ljallangan DEG-1 polimer epoksid smolaning me'yori suvga chidamliligi, aralashmaning to'ldiruvchiga nisbatan zichligi va eritmaning o'rtacha zichligi aniqlangan;

ishlab chiqilgan aralashmalarning mustahkamligi va suvga chidamliligi faol mineral qo'shimcha hamda to'ldiruvchi nisbatiga, zichlik va o'rtacha zichlik ko'rsatkichlari to'ldiruvchi miqdoriga, suvga bo'lgan talab esa epoksid polimerli

modifikator miqdoriga bog'liqligini ifodalovchi ko'p parametrlil matematik munosabatlar aniqlangan;

material tarkibida asosiy karkasni hosil qiluvchi kalsiy sulfat ikki gidrati kristallari bilan bir qatorda, eritmaning suvga va sovuqqa chidamliligini ta'minlovchi CSH(B) tipidagi o'ta dispers gidrosilikatlar hamda gidroalyuminatlar shaklidagi yangi fazalar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gil-gips bog'lovchilariga maxsus tanlangan portlandsement superplastifikator S-3 ishlatilgan Tashkent traktor zavodi qumi (kremnezemli) aralashmasi bilan birgalikda mexanik-kimyoviy faollashtirish orqali olingan faol mineral qo'shimchani optimal tarkibi asosida namlikka chidamli gilgips bog'lovchisi ishlab chiqilgan;

yangi modifikatsiyalangan gilgipsli bog'lovchilarning fizik-mexanik va fizik-kimyoviy xossalari ochib berilgan;

barqaror xususiyatlarga ega bo'lgan siqilishga 15 dan 35 MPa gacha, yumshash koeffitsienti 0,74 dan 0,87 gacha, suvga talabi 27-38% bo'lgan optimallashtirilgan kompozitsion gipsli va gil-gipsli bog'lovchilar texnologiyasining asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi eksperimental tadqiqotlarni zamonaviy asboblardan standart usullardan foydalangan holda chuqur va har tomonlama o'rganilishi, tajribalarni qurilish me'yorlari va qoidalari hamda talab etilgan davlat standartlari bo'yicha o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarini yuqori aniqlikda bajarilgani hamda ularni amaliyotga joriy etilganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy gilgipsli bog'lovchi asosida modifikatsiyalangan suvda eriydigan polimer qo'shimcha gil gips toshining g'ovakliligini pasaytirgan va ichida o'rab olgan, bu suvlarning kirishini kamaytirgan yoki toxtatish imkonini yaratgan tufayli suvga bardoshligi yuqorilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xom ashyoga asoslangan gil gipsli biriktiruvchi tarkibini tanlash va optimallashtirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, ekologik toza va iqtisodiy jihatdan samarali bloklar ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Modifikatsiyalangan gilgipsli bog'lovchi tarkiblarini loyihalash va xossalari optimallashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

gil-gips bog'lovchilariga maxsus tanlangan portlandsement superplastifikator S-3 ishlatilgan Tashkent traktor zavodi qumi (kremnezemli) aralashmasi bilan birgalikda mexanik-kimyoviy faollashtirish orqali olingan faol mineral qo'shimchani namlikka bardoshligini taminlaydigan optimal tarkib ishlab chiqilganligi hamda gil-gips bog'lovchilariga maxsus tanlangan optimal tarkibli faol mineral qo'shimcha xossalarni yo'naltirilgan tarzda rostlash uchun mo'ljallangan DEG-1 polimer epoksid smolaning me'yori suvga chidamliligi,

aralashmaning to'ldiruvchiga nisbatan zichligi va eritmaning o'rtacha zichligi aniqlanganligiga oid takliflar Buxoro viloyati "JAMBAY GYPSUM PRODUCTION" MCHJ faoliyatida foydalanilgan ("Qoraqalpog'iston Respublikasi qurulish va uy-joy kommunal xojaligi vazirligi"ning 2025-yil 20-iyundagi 04-07/01-1904-son ma'lumotnomasi). Natijada 15-35 MPa markadagi gil gipsli biriktiruvchi tarkibining suvga talabchanligini 27-38% darajadcha kamaytirishga erishilgan;

ishlab chiqilgan aralashmalarning faol mineral qo'shimcha to'ldiruvchiga nisbatan mustahkamligi va suvga chidamliligi, to'ldiruvchiga nisbatan zichligi va o'rtacha zichligi, epoksid polimerli modifikatorga nisbatan suvga bo'lgan talabning ko'p omilli matematik bog'liqliklari aniqlanganligi hamda fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida asosiy karkasni hosil qiluvchi kalsiy sulfat ikki gidrati kristallari, shuningdek, eritmaning suvga va sovuqqa chidamliligini ta'minlaydigan CSH(B) tipidagi o'ta dispers gidrosilikatlar, gidroalyuminatlar ko'rinishidagi yangi hosilalarning tabiati aniqlanganligiga oid takliflar Nukus shahri "LEGEND STORY BIZNES" MCHJ faoliyatida foydalanilgan ("Qoraqalpog'iston Respublikasi qurulish va uy-joy kommunal xojaligi vazirligi"ning 2025-yil 20-iyundagi 04-07/01-1904-son ma'lumotnomasi). Natijada yumshash koeffitsienti 0,74 dan 0,87 gacha kuchayishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta va shundan 8 ta maqola xorijiy va mahalliy jurnallarda chop etilgan. Bundan tashqari Intellektual mulk agentligidan EHM uchun dasturiy ta'minotga 2 ta egalik huquqini belgilovchi DGU guvohnomasi olingan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, qurilishda serg'ovak betonlardan foydalanishning xorijiy mamlakatlar va respublikamizda orttirilgan ilg'or tajribasi, hamda ushbu zamonaviy materialni olishning yangi texnologiyalari bilan bog'liq texnik adabiyotlar va tadqiqotlarning tahliliy sharhi berilgan. Shuningdek, ushbu bobda gil gipsning afzalliklari, turlari, tasniflanishi va qurilishda foydalanish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Mazkur mavzuga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan nashr

qilingan asarlari tahlili natijalari hamda serg'ovak betonlar texnologiyasiga oid bo'lgan mavjud muammolar aks ettirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gips bog'lovchilarining xususiyatlarini yaxshilashning zamonaviy usullari”** deb nomlangan birinchi bobida, ilmiy muammoning zamonaviy holatini chet el, hamda yurtimiz olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy maqola va ishlanmalarida keltirilgan izlanishlari natijalari tahlili keltirilgan. Unda Gips bog'lovchilarning suvga chidamliligi uchta asosiy omil bilan belgilanganligi va ishlab chiqarishning dolzarb muammolari, ishlab chiqarishning an'anaviy texnologiyasi, namlikka chidamli gips ishlab chiqarishda elektrolitlarni kiritish orqali sozlanishi mumkin bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, energiya va resurs tejankor gips ishlab chiqarish istiqbollari bo'yicha mavjud muammolar o'rganib chiqilgan va tahlil qilinib, tadqiqotning ishchi gipotezasi, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.


Gipsli bog'lovchilar va ular asosidagi mahsulotlarning suvga chidamliligini oshirish va texnik xususiyatlarini yaxshilash o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlandi. Usullar mexanik ta'sir gips toshining zichligini oshirishga asoslangan edi (aralashmalarni trambovkalash yoki presslash) yoki gipsli betonning faol sintetik qo'shimchalarini kiritish tufayli olib borilgan. Gips toshining sirtini va yoki gidrofobizatsiyasining turli usullari ko'rib chiqildi. Kalsiy sulfatning suvda eruvchanligini kamaytirish va uni kimyoviy o'zaro ta'sirlar natijasida hosil bo'lgan erimaydigan birikmalar bilan himoya qilish imkoniyatlari o'rganildi.

Gipsni boshqarish va ushbu muammoni hal qilishning istiqbolli yo'nalishlarini shakllantirish nuqtai nazaridan A. V. Voljenskiy va P. P. Budnikovlarning hissasini ta'kidlash kerak. Gips bog'lovchisi shlak va ohakdan tayyorlangan tizimlar suvga chidamliligi mustahkamligining o'sishi dastlabki bosqichlarida sezilarli kuchga ega ekanligi, kelajakda deformatsiyalar paydo bo'lishi tufayli mustahkamlikning pasayishi mumkinligi aniqlandi.

Sirt faol moddalarning ta'sir qilish mexanizmi shundaki, ular suvli eritmalarda shunday dissotsiatsiyalanadi, shunda faollik tashuvchisi polyarli molekulalar guruhidir, ular sirt qatlamiga chuqur kirib boradi, lekin polyarsiz qismi sirt yuzasi tomon yo'l altirilib, molekulyar chegara hosil qiladi (1.1-rasm). Molekulalarining sirt qatlamida zaif ta'sir o'tkazadigan sirt faol moddalar to'planishi fazaviy ajralish yuzasida molekulyar o'zaro ta'sirni kamaytiradi va sirt tarangligi pasayadi. Suyuq-gaz yuzasida adsorbsiyalanadigan va tizimning sirt tarangligini pasaytiradigan moddalarga sirt infaol moddalar deyiladi.

Suyuqlikning gazzimon muhit bilan aloqa qilgan qattiq jismning yuzasi bilan, *namlash (singdirish)* effekti paydo bo'ladi. Namlash xarakteristikasiga namlash qirradi burchagi θ hisoblanadi. Havo muhitida suyuqlik va qattiq jismning o'zaro ta'sirining xarakterli holatlari 1-rasmda keltirilgan. Tomchilar o'tkir chekka burchagini ($\theta < 90^\circ$), 90° kattalikka teng chekka burchagi va o'tkir yemas chekka burchagi ($\theta > 90^\circ$) hosil qilishi mumkin.

Ekstremal sharoitlar qattiq sirtni suyuqlik bilan to'liq namlash (singdirish) va to'liq singdirmaslik hisoblanadi.



1-rasm - "suyuqlik (1), havo (2), qattiq jism" tizimida to'liq bo'lmagan namlanish variantlari (3) 3: a – $\theta < 90^\circ$; b – $\theta = 90^\circ$; b – $\theta > 90^\circ$

To'liq namlash ($\theta = 0$) bu «suyuqlik – qattiq yuz» sirt ustida to'liq suyuqlik tarqalganda, masalan, toza va yog'sizlangan shiysha yuzasiga bir tomchi suv surtilganda suyuqlikning to'liq oqib ketish ahvoriga aytiladi. Suyuqlik va qattiq moddalar o'rtasida tortilish kuch mavjudligi sababli to'liq namlanmaslik ($\theta=180^\circ$) umuman ko'rinmaydi.

Namlash perimetri yoki tomchi atrofi uchta muhitning o'zaro ta'sirining chegarasi (1.2-rasm): suyuq (1), havo (2) va qattiq (3). Ushbu vositalar xarakterli sirt tarangligi σ bilan aloqa yuzalarini hosil qiladi. Qabul qilingan sxema bo'yicha namlanish perimetrining birlik uzunligiga uchta kuch ta'sir qiladi (1.2-rasm), tegishli fazalar sirt chegarasiga tegishli vektorlar bilan yunaltiruvchi urinma bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati barqaror xususiyatlarga ega bo'lgan siqilishga 15 dan 35 MPa gacha, yumshash koeffitsienti 0,74 dan 0,87 gacha, suvga talabi 27-38% bulgan optimallashtirilgan kompozit gipsli va gil-gipsli bog'lovchilar texnologiyasining asoslari ishlab chiqildi.

Ishchi gipotezasi. Faol mineral komponentlar va superplastifikator ishtirokida gipsli va gilli-gips tarkiblarining mexanokimyoviy faollashishi yangi turdagi kompozit materiallarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan modifikatsiyalangan bog'lovchilarni olish imkonini beradi.

Gilgips bog'lovchisini kompleksli modifikatsiyalavchi gidravlik qo'shimcha, pussolanli faollikka ega bo'lgan qoliplash uchun ishlatilgan kvarts qumi, superplastifikator S-3 va suvda eriydigan polimer epoksid smolasi DEG-1. Ushbu

qo'shimchalarning kiritilishi bilan gil gips g'ovaklarida kuchli plastiklashtiruvchi kolmatatsiya ta'siri qayd etiladi, bu gil gipsli aralashmasining S/Q nisbatini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuning uchun erigan smolaning sement va gipsning gidratsiyasiga salbiy ta'siri nafaqat qoplanadi, balki aralashmadagi suv miqdorini kamaytirish orqali fizik-mexanik xususiyatlar yaxshilangani bilan qoplanadi. Polimer gips toshining g'ovak maydonini urab qurchab olishi sababli uning o'tkazuvchanligini va sovuqqa va korroziyaga chidamliligini oshiradi.

Dissertatsiyaning **“Foydalaniladigan materiallarning xususiyatlari va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ishida qo'llanilgan gilgips materiallarning xususiyatlari, fizik-mexanik va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish usullari, polimer qo'shimcha DEG-1 portlandsement va superplastifikator S-3 tasiri bilan modifikatsiyalangan gil gipsli namunalarda tarkibidagi komponentlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun hisoblashni matematik modellashtirish usullari haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

Gil gips beqaror bog'lovchi bo'lgan dispers mineral aralashmasi. Gil gipsning havo-quruq sharoitida o'rtacha zichligi 1400-1600 kg/m³ ni tashkil qiladi; sochiluvchi gil gipsining o'rtacha zichligi 1000 kg / m³. Gil gipsining haqiqiy zichligi 2,3-2,5 t/m³. Gil gipsining kimyoviy tarkibi (%): CaSO₄·2H₂O — 43,7-68,8; H₂O — 2,2-17,6; MgO — 0,2-1,8; CaO — 8,2-25,5; R₂O₃ — 3,4-10,8; SiO₂ — 16,9-39,0.

Gil gipsli bog'lovchi oldindan tozalangan va maydalangan gipsli toshning quritish orqali olinadi. Energiya xarajatlari gips ishlab chiqarishning bir xil, oshmaydi. Gil gipsdan mahalliy xom ashyo sifatida foydalanish uning narxini va logistika xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.


Portlandsementning gidratatsiya dinamikasini (nazorat tarkibi), modifikatsiyalangan gidravlik biriktirgichni (mayda maydalangan mineral qo'shimchalarning har xil tarkibida) va modifikatsiyalangan biriktiruvchi va maydalangan faol mineral qo'shimchalar asosida gips aralashmasini baholashning bilvosita usuli sifatida ko'rib chiqildi.

Modifikatsiyalangan gidravlik bog'lovchi tarkibiy qismlarining, shuningdek, ushbu bog'lovchi asosidagi gips aralashmasining gidratatsiya jarayoniga ta'sirining tabiati ham aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“S-3 superplastifikatori bilan gipsli bog'lovchilarni modifikatsiyalash va uning xususiyatlarini tadqiqotlash”** nomli uchinchi bobida gil gips tarkibini Beton uchun kimyoviy qo'shimcha bo'lgan superplastifikator S-3 (naftalin sulfokislotalarini formaldegid bilan kondensatsiyalash yo'li bilan olinadi, so'ngra olingan polimer birikmalar o'yuvchi natriy bilan neytrallanadi. Yakuniy mahsulot jigarrang kukun bo'lib, uni quruq holda ishlatish yoki suyuq eritma olish uchun suvda eritish mumkin).

Bog‘lovchilarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan gipsli xom ashyo tarkibida, odatda har doim u yoki bu miqdorda turli miqdorda tog‘ jinslarning iflos-aralashmalari mavjud. Bundan tashqari, aralashmalar fizikoviy yoki kimyoviy jihatdan bog‘lanmagan yoki gips bilan bog‘langan holatda bo‘lishi mumkin. Gips xom ashyosi tarkibida asosan karbonat, loy va kremniyli jinslar tarkibiy qismlari sifatida mavjud. Zavodlarda asosiy jinsdan iflos-aralashmalarni ajratish, qoida tariqasida, texnik murakkablik va oxir-oqibat ushbu operatsiyaning iqtisodiy rentabelligi tufayli amalga oshirilmaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan mineral iflos-aralashmalarning aksariyati (ularning tarkibi 20% gacha) gips biriktiruvchi xususiyatlarini biroz o‘zgartiradi. Ko‘rinish shuni ko‘rsatdiki, dispers iflos-aralashmalar tarkibining 40-80% gacha oshishi bilan namunalarning mustahkamligi 2-3 barobar kamayishi mumkin. Kaolinit gil bilan iflos-aralashmalarning (jismonan bog‘langan) xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, u kiritilganda gips toshining mustahkamligi pasayadi. Xususiyatlarning degradatsiyasi qushilgan loy miqdoriga bog‘liq. U 5% miqdorida kiritilganda, gipsli bog‘lovchi markasi G-7 dan G-5 gacha kamaydi va loy tarkibi 20% ga oshganda, markasi G-2 ga kamaydi.




Rasm 2 – Gips tarkibli bog‘lovchilarning rentgenogrammasi:


- 1 – β -modifikatsiya;
- 2 – modifikatsiyalangan gips bog‘lovchisi S-3 sarfi 1% massa;
- 3 – modifikatsiyalangan gips bog‘lovchisi S-3 sarfi 2% massa;

Polimetilen-naftalen-sulfanat (Superplastifikator C-3 ning faol moddasi) molekulalarining gips bog'lovchisi bilan o'zaro ta'siri mineral komponentlar va sintetik komponent o'rtasidagi aloqa yuzalarida sodir bo'ladi. O'zaro ta'sir mexanizmi oldingi bo'limlarda batafsil tavsiflangan va ushbu faol moddaning polyarli molekulalarini mineral yuzalarda sorbsiya qilish jarayonlariga asoslangan. Kimyoviy o'zaro ta'sir xemosorbsiya darajasida namoyon bo'ladi, ya'ni sirt faol moddalarning xususiyatlari o'zgarishi mumkin, ammo asosiy materialning xususiyatlari ixtiyoriydir. Sirt faol moddalarning xususiyatlari energiya konstantalari tufayli o'zgarishi mumkin, bu tayanch yuzalarining murakkab topografiyasidan sababidan kelib chiqadi. Sirt faol moddasining destruksiya ham mumkin.


Issiqlik chiqarish usuli yordamida gidratatsiya jarayonini tadqiq qilish ob'ekti sifatida β -modifikatsiyadagi gipsli bog'lovchilar ko'rib chiqildi. Nazorat namunalari qo'shimchalarsiz bog'lovchi namunalari edi. Gips bog'lovchisiga C-3 superplastifikatori qo'shib qotish jarayonlarining o'zgarishiga ta'siri o'rganildi. C-3 superplastifikatori eritmasi aralashtirish suviga 0,5 % miqdoridan boshlab qoshildi. C-3 superplastifikatori 0,5 va 2 % miqdorida dastlabki bog'lovchini silliqlash paytida kiritilgan. Tajribalarning maqsadi SFM mavjud bo'lganda yoki yo'qligida gips bog'lovchilarining turli xil modifikatsiyalarining suv bilan o'zaro ta'sirining xarakterli nizomlarini o'rnatish edi.



SP qushilmagan



SP S-3 suvga qushilib kiritilgan



Rasm- 3 Gipsli bog‘lovchilarning gidratatsiya qilish paytida issiqlik chiqarish kinetikasi:

- 1 – β -modifikatsiya gipsi;
- 2 – gil gips;
- a – qo‘shimchasiz;
- b – aralashtirish suviga kiritilganda 0,5 % C-3 qo‘shilgani;
- v, – aralashtirish maynlashta kiritilganda 0,5 va 2 % C-3 qo‘shilgani

Tadqiqotlar (1-jadval) shuni ko‘rsatadiki, gipsli bog‘lovchini maynlash paytida superplastifikatorning fazalararo tortilishini suv bilan aloqa qilganda yuzalararo kuchlanishini keskin kamaytiradi.

Shu bilan birga, C-3 qo‘shimchasi β -modifikatsiyalangan gipsli bog‘lovchining namlanish issiqligini 11,5 dan 4 Vt/(g *min) gacha va 0,5-1% dan 0,5-1,5 Vt/(g*min) gacha kamaytiradi. Aralashtiruvchi suviga C-3 ni kiritish orqali past natijalarga yerishiladi.

Jadval - 1

Gips bog‘lovchilariga S-3 kiritish uslubi va miqdorining namlanish issiqligiga ta’siri

Gips bog‘lovchi turlari	Namlanish issiqligini, Vt/(g·min) S-3 tarkib bilan, %					
	—	0,05 maynlashda	0,5 maynlashda	0,5 suvga kiritish	1 suvga kiritish	2 suvga kiritish
β	6,8	3,9	1,1	3,6	0,8	0,5
gilgips	11,8	4,2	1,4	5,8	0,6	0,4

Dissertatsiyaning “**Modifikatsiyalangan gips tarkibidagi bog‘lovchilarni xususiyatlari va ularni tayyorlash**” nomli to‘rtinchi bobida Gips yoki gil gipsli tarkibidagi bog‘lovchilarni maynlanganlik darajasi bu bog‘lovchilarning

xususiyatlarini modifikatsiyalashning eng samarali usullaridan biridir. Tadqiqot ishlarida gips tarkibli bog‘lovchilarining gil minerallari, karbonat jinslari yoki mergel qo‘shimchalari bo‘lgan kimyoviy genezisning o‘rganish ham katta qiziqish uyg‘otadi.

Jadval - 2

Silliqlashning gips bog‘lovchilarining asosiy fizik-mexanik xususiyatlariga ta’siri

Bog‘lovchi turi	Silliqlash vaqti, min	Sirt maydoni, m ² /gr	Normal quyuvlik, %	Siqilishdagi mustahkamlik, MPa	
				2 soat	To‘liq kepkan
G-3	3	290	0,51	3,81	10,8
G-5	3	217	0,59	5,15	12,3
GGB	5	203	0,5	2,80	7,8
G-3	15	376	0,58	4,3	12,5
G-5	15	389	0,6	6,8	14,0
GGB	20	309	0,6	4,7	10,2

Muayyan sirt maydoni oshgani sayn, gips tarkibidagi bog‘lovchilarning suvga bo‘lgan talabi ortadi va tishlashish vaqti (2-jadval) keskin kamayadi. Mexanokimyoviy faollashtirishdan foydalanish (sirt faol moddalar - superplastifikatorlar mavjud bo‘lganda gips biriktirgichni silliqlashdan iborat) nafaqat bog‘lovchini tishlashish vaqtini qulay tarzda, balki silliqlashning energiya parametrlarini ham sozlash imkonini beradi.

KGGB tarkibidagi qo‘shimchaning (mineral yoki organomineral) minimal zarur miqdori qotib qolgan gil gips toshidagi bo‘shliqlarni (g‘ovaklar va kapillyarlar) ularning gidratatsiya mahsulotlari bilan maqsadli maksimal to‘ldirilishi bilan bog‘liq. Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, gips toshining g‘ovakligi mineral aralashmalarning dastlabki suv tarkibiga, ularning suvga bo‘lgan ehtiyojiga va qoliplashning texnologik usullariga qarab 23 dan 42% gacha bo‘lishi mumkin.

Jadval 3

Gil gipsli bog‘lovchini modifikatsiyalovchi tarkiblari

Tarkib shifri	Bog‘lovchi tarkibi, massa bo‘yicha %					Normal quyuvlik, %
	Gil gips bog‘lovchisi	Organomineral modifikator tarkibi, %				
		PS	KD	S-3	FMQ	
MGGB-01	79	10	8	0	3	0,47
MGGB -02	70	10	16	0	4	0,45
MGGB -03	70	12	15	0	3	0,46

MGGB -04	68	15	13	0	4	0,46
MGGB -05	60	15	21	0	4	0,47
MGGB -06	55	15	26	0	4	0,43
MGGB -1	78	10	5	1	5	0,38
MGGB -2	69	10	15	1	5	0,37
MGGB -3	69	12	13	1	5	0,36
MGGB -4	67	15	12	1	5	0,37
MGGB -5	59	15	20	1	5	0,36
MGGB -6	54	15	25	1	5	0,35
MGGB -7	69	10	17	1	5	0,22
MGGB -8	59	15	11	1	5	0,21

MGGB tarkibiga (3-jadval) portlandsement, kremnezem kushimcha, ishlatilgan kvars qumi bilan tuffit mineral qo‘shimcha (FMQ) kiritildi. FMQ portlandsement, mineral kompleks qo‘shimcha (kremnezemli qo‘shimcha, perlitli tuffit va ishlatilgan kvars qumi) va superplastifikator S-3 aralashmasini mexanokimyoviy faollashtirish natijasida olingan (4-jadval).

FMQ tarkibida o‘rtacha pussolan faollikka ega bo‘lgan kul va boshqa kremnezemli qo‘shimchalar qo‘llanilganda, faol mineral qo‘shimcha tarkibidagi faol mineral komponent miqdori ortishi bilan bog‘lovchining marka mustahkamligi ortishi kuzatiladi (3-jadval).

Organomineral qo‘shimcha tarkibida portlandsement miqdorini ko‘paytirish MGGB mustahkamligini oshirishga yordam beradi (3 va 4-jadvallar).

Jadval – 4

Kompozision gil gips bog‘lovchilarining asosiy fizik-mexanik xossalari

Tarkib shifri	Siqilishdagi mustahkamlik, MPa			O‘rtacha zichlik, kg/m ³	Yumshash koeffitsiyenti
	2soat	7sut.	28sut.	28 sut.	
MGGB -01	6,0	9,9	16,	1,56	0,45
MGGB -02	6,7	10,3	17,	1,70	0,47
MGGB -03	6,1	10,4	19,	1,70	0,49
MGGB -04	6,1	10,6	18,	1,63	0,51
MGGB -05	4,8	12,7	23,	1,75	0,52
MGGB -06	4,3	10,4	22,	1,6	0,56
MGGB -1	7,7	17,6	26,	1,67	0,7
MGGB -2	7,2	14,0	29,	1,83	0,7
MGGB -3	5,8	14,8	30,	1,81	0,7

MGGB -4	6,7	17,0	29,	1,76	0,72
MGGB -5	4.6	18.8	32,	1,90	0,75
MGGB -6	14.2	25.8	43,	1,85	0,77
MGGB -7	15.5	27.3	39,	1,82	0,78

OMM qo‘shilgan tarkiblarda yumshash koeffitsiyentining oshishi gil gips toshi zichligining oshishi va uning suv o‘tkazuvchanligining pasayishi, shuningdek, gips kristallarida himoya gidrat qobiqlarining shakllanishi bilan izohlanadi. Tarkibida S-3 superplastifikatori bo‘lgan barcha kompozision gil gips bog‘lovchilari tarkiblari yumshash koeffitsiyentining yuqoriligi (0,7-0,78) bilan tavsiflanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, gil gips bog‘lovchisi tarkiblarning superplastifikatorsiz yumshash koeffitsiyenti 0,49-0,5 atrofida bo‘lib, bu ularni o‘rtacha suvga chidamli gips bog‘lovchilari guruhiga kiritish imkonini beradi. Kompozision gil gips bog‘lovchilari tarkibidagi portlandsement miqdorining ko‘payishi gips toshining mustahkamligini va uning yumshash koeffitsiyentini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, gil gipsli bog‘lovchi va organomineral modifikatorni qo‘llab kompozision gil gips bog‘lovchilari MGGBni yuqori mustahkamlik ko‘rsatkichlari va nisbatan yuqori yumshash koeffitsiyentiga ega bog‘lovchi olish imkonini berishi aniqlandi. Yumshash koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan kompozisiyalarni takomillashtirish uchun kompozision gil gips bog‘lovchi olishning resepturalari va texnologik xususiyatlarini optimallashtirish, resepturaviy va texnologik omillarning tayyor mahsulot xossalriga o‘zaro ta’sirini aniqlash zarur.

UMUMIY XULOSA

1. Ishda portlandsement, kremnezem tarkibli komponent va S-3 superplastifikatoridan tashkil topgan organomineral qo‘shimchani birgalikda mayinlash orqali mexanik faollashtirish yo‘li bilan olinadigan sifat jihatidan yangi modifikatsiyalangan gil-gips bog‘lovchisini olish bo‘yicha dolzarb vazifalar hal qilingan.

2. O‘zbekistonda joylashgan mahalliy tabiiy xomashyo yoki ishlab chiqarish chiqindilari bo‘lgan turli xil mineral faol komponentlarning xususiyatlari o‘rganildi: Toshkent traktor zavodining quyma ishlab chiqarishida ishlatilgan qoliplash kvars qumi; Navoiy viloyati Kermenin konining tuffitlari kiradi.

3. SFMlarning gipsli bog‘lovchilar bilan birgalikda quruq maydalashdagi o‘zaro ta‘sirining fizik-kimyoviy asoslari SFMlarni qorishma suvi bilan kiritishdagi ta‘sir qonuniyatlaridan tubdan farq qilishi aniqlandi. Birinchi holatda SFM molekulari nafaqat bog‘lovchining faol markazlariga xemosorbsiyalanadi, balki maydalash jarayonida materialning ichki qatlamlariga diffuziyalanadi, SFM qorishma suvi bilan kiritilganda esa ko‘proq harakatchan polyarli suv molekulari SFMning katta molekularida bog‘lovchining faol markazlari uchun raqobatda g‘alaba qozonadi.

4. Modifikatsiyalangan gipsli bog‘lovchilarning qisqa muddatli qotishida 100%-li gidratatsiyasini ta‘minlaydigan S/G chegaraviy qiymatlari aniqlandi. $S/G = 0,38 - 0,40$ da qoliplangan bog‘lovchining gidratatsiya darajasi dastlabki aralashmaning yuqori oquvchanligiga qaramay, qotish kunidan keyin 80 - 83% dan oshmasligi, to‘liq gidratatsiyaga esa bir necha oylik qotishdan keyin erishilishi ko‘rsatilgan. Bunda gips toshining yakuniy mustahkamligi 10 MPa dan oshadi.

5. Gips toshi strukturasi bog‘lovchining dispersligi, SFM va boshlang‘ich S/G aralashmasining miqdori va turiga bog‘liq holda shakllanish qonuniyatlari aniqlangan.

6. Gips bog‘lovchisining marka mustahkamligini oshirish uchun gips bog‘lovchisini olishda maydalashning texnologik bo‘limiga 0,15-0,18% superplastifikatorni kiritish etarli bo‘ladi.

7. S-3 superplastifikatori qo‘shilgan gips bog‘lovchisini ikkilamchi maydalashni nazarda tutuvchi MGGB olishning texnologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Bog‘lovchining yakuniy dispersligi 500-580 m²/kg dan oshmasligi kerakligi ko‘rsatilgan.

8. Organomineral qo‘shimcha (OMQ) tarkibi va uni olish texnologiyasi asoslangan bo‘lib, u portlandsement, kremnezemli komponentlar va kimyoviy qo‘shimchalarni kremnezemli qo‘shimchalar turiga bog‘liq bo‘lgan rejim bo‘yicha birgalikda mexanik-kimyoviy faollashtirishni o‘z ichiga oladi.

9. Tizimli tahlilni qoʻllagan holda eksperimental maʼlumotlarni qayta ishlash modifikatsiyalangan gil-gips bogʻlovchisining (MGGB) optimal tarkibini ishlab chiqish imkonini berdi: komponentlar sarfi gil-gips massasiga nisbatan %: portlandsement - 14%, maydalangan perlitli tuffitlar - 6%, S-3 superplastifikatori - 0,18%. KGGBning solishtirma sirti. Bu MGGB tarkibiga siqilishdagi mustahkamligi 15,9 MPa va yumshash koeffitsiyenti 0,73 toʻgʻri keladi.

10. Hisoblangan iqtisodiy samaradorlik modifikatsiyalangan gil-gipsli bogʻlovchining bir tonnasi uchun 260 000 soʻmni tashkil etadi. Tajriba partiyasiningga chiqarilishi iqtisodiy samara boʻyicha haqiqiy natijalar va hisoblangan maʼlumotlarning mos kelishini koʻrsatdi.

11. MGGB qoʻllanilgan materiallar texnologiyasini rivojlantirishning istiqbolli yoʻllari shpaklyovka va suvoq qoplamasining oraliq qatlamlari uchun quruq qurilish aralashmalarini tayyorlash; engil suvoqlar tayyorlash; fasad qoplamasi sifatida, shuningdek, gipsokarton listlar texnologiyasida qoʻllaniladigan suv va sovuqqa chidamli buyumlar ishlab chiqarishdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/05.04.2025.Т.20.12 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА
КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

БЕКБАУЛИЕВА РУСЛАНА ИСМАИЛ УЛИ

**МОДИФИЦИРОВАННЫЕ ГЛИНОГИПСОВЫЕ ВЯЖУЩИЕ
ПОВЫШЕННОЙ ПРОЧНОСТИ И ВОДОСТОЙКОСТИ**

05.09.05 - Строительные материалы и изделия

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

Нукус – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером 03/05.04.2025.Т.20.12.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Асаматдинов Марат Орынбаевич

доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент

Официальные оппоненты:

Исакулов Байзак Разакович

доктор технических наук, профессор

Юсупов Хамза Ибадович

кандидат технических наук, профессор

Ведущая организация:

Джизакский политехнический институт

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета PhD.03/05.04.2025.Т.20.12 при Каракалпакском государственном университете "___"_____2025 г. в ___ часов. (Адрес: Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, улица Ч.Абдирова, 1, Нукус, Узбекистан, 230112).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирована под No___). (Адрес: Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, улица Ч.Абдирова, 1, Нукус, Узбекистан, 230112).

Автореферат диссертации разослан «___» _____2025 года
(протокол рассылки № __ от «__» _____ 2025 г.).

Ильясов А.Т.

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Жумабаев Д.М.

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, доцент

Шнекеев Ж.К.

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность темы диссертации.

В мире растет спрос на использование энергосберегающих и энергоэффективных строительных материалов для возведения зданий и сооружений, особенно увеличивается применение гипсовых вяжущих в отделочных и сухих штукатурных работах в помещениях жилых зданий. В развитых странах - в том числе в Германии, Финляндии, Японии, США, Нидерландах, Южной Корее, Австрии, Польше, Китае, Российской Федерации, Чехии и Турции - проводятся масштабные исследования и инновационные разработки по созданию новых видов строительных изделий на основе гипса, улучшению их физико-механических и эксплуатационных свойств, а также совершенствованию технологий производства. В этом направлении особое внимание уделяется вопросам рационального использования местного природного и техногенного сырья, разработки современного оборудования и эффективных модифицирующих добавок, способствующих повышению качества продукции. Поэтому комплексное изучение имеющейся сырьевой базы, внедрение передовых технологий модификации и разработка сухих штукатурных смесей с высокими эксплуатационными свойствами, импортозамещение, повышение эффективности производства и расширение экспортного потенциала в строительной отрасли нашей страны являются актуальными задачами.

В мире проводятся многочисленные научно-исследовательские работы, направленные на производство сухих штукатурных смесей на основе эффективного использования промышленных отходов, и тем самым на обеспечение теплоизоляции, прочности и надежности зданий и сооружений. Одним из приоритетных направлений является повышение прочности и водостойкости смесей, специально подобранного оптимального состава глиногипсовых вяжущих, обеспечивающих влагостойкость активной минеральной добавки. При этом проведение научных исследований, направленных на повышение долговечности и влагостойкости гипсовых изделий на основе местного сырья, их огнестойкости, прочности, теплоизоляционных свойств и экологической чистоты зданий, а также снижение стоимости стеновых материалов, считается одной из важнейших и актуальных задач.

В нашей республике осуществляются широкомасштабные мероприятия по производству современных строительных материалов, особенно легких, энергосберегающих, прочных пенобетонных изделий, повышению их долговечности и обеспечению экологической безопасности, а также

внедрению их в практику. В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы" отмечено, что "широкое внедрение инноваций в экономику, развитие кооперационных связей промышленных предприятий и научных учреждений. Налаживание производства строительных материалов." При реализации этих задач, в частности, на основе теоретических и экспериментальных исследований с использованием местного сырья, важное значение приобретает производство и внедрение в практику новых видов строительных материалов на основе гипса и фосфогипса.

В Постановлении Президента Республики Узбекистан от 23 мая 2019 года № ПП-4335 "О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности строительных материалов" определен ряд задач, таких как производство и расширение новых современных видов стеновых материалов в строительной отрасли, увеличение объема сырьевой базы строительной индустрии на основе проведения геологоразведочных работ, добычи и переработки в 2019-2025 годах.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-139 от 21 февраля 2022 года "О дополнительных мерах по поддержке жилищного строительства и промышленности строительных материалов" и Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 231 от 23 февраля 2024 года "О мерах по гармонизации нормативных документов в области строительства с международными стандартами", а также другими нормативно-правовыми документами, принятыми в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики II. "Энергетика, энерго-и ресурсосбережение."

Степень изученности проблемы. В мировой практике многие ученые занимались улучшением водостойкости гипса и вяжущих в составе гипса: А. В. Волженский, А. В. Ферронская, П. А. Ребиндер, В. Ф. Коровяков и др. Небольшая группа ученых (Н. С. Богданов, Л. А. Захарова, К. С. Кутателадзе, М. З. Симонова, Б. С. Циглера, Особенности и методы получения и преобразования гипсового сырья глубоко изучены зарубежными учеными А. М. Ткешелашвили. Ведущие ученые нашей республики в области гипсовых материалов - К.С. Ахмедов, Ф.Л. Глекель, Т.А. Атакузиев, О.Асаматдинов, Э.У. Косимов, Н.А. Самигов, А.И. Адилходжаев, Ш.Н. Туремуратов, Н.Х. Талипов, А.А. Тулаганов, И.М. Махаматалиев провели свои научные исследования и достигли важных научных результатов.

Анализ ранее проведенных исследований показывает, что вопросы, направленные на разработку влагостойких составов с применением модифицирующих добавок, оптимизацию свойств гильгипса за счет использования минеральных добавок для повышения прочности недостаточно изучены и требуют дальнейших исследований.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках прикладного проекта Каракалпакского государственного университета №521 Т/2 "Создание технологии получения фибробетона на основе базальтовых, металлических и стеклянных волокон с сейсмостойкой конструкцией, соответствующей стандартам" (2023-2024 гг.).

Цель исследования. Целью исследования является разработка композиционных глиногипсовых вяжущих с активными минеральными добавками на основе местных глиногипсовых вяжущих (с гипсовым вяжущим) и улучшение состава, разработать формулы и научные основы технологии минеральных вяжущих материалов, обеспечивающих повышение коэффициента размягчения и прочности на сжатие.

Задачи исследования:

- изучение опыта использования активных минеральных и синтетических добавок для повышения водостойкости гипсовых композиций;
- изучение возможных способов повышения водостойкости глиногипсовых вяжущих с изменяющимися рецептурными факторами и технологическими параметрами;
- разработка теоретических принципов повышения эффективности глиногипсовых вяжущих, создание гидравлической композиции с использованием глиногипсовых вяжущих и материалов на их основе;
- исследование технологии и рецептуры глиногипсовых вяжущих гидравлической композиции.

В качестве объекта исследования были взяты местное сырье портландцемент, модифицированные влагостойкие материалы на основе эпоксидных полимерных добавок и суперпластификатора, содержащие активные минеральные добавки в составе вяжущих на основе глиногипса Ходжакульского месторождения.

Предметом исследования являются физико-механические, физико-химические и технико-экономические параметры влагостойкого глиногипсового вяжущего, приготовленного с использованием активных минеральных добавок портландцемента, эпоксидной полимерной добавки и суперпластификатора.

Методы исследования. В исследовании использовались современные методы, физико-химический анализ, инфракрасный спектроскопический, электронно-микроскопический и дифференциальный термогравиметрический анализ, сканирующий электронный микроскоп и

элементный анализ, а также методы статистического математического моделирования экспериментальных результатов.

Научная новизна исследования:

оптимальный состав, обеспечивающий влагостойкость активной минеральной добавки, разработан путем механо-химической активации глино-гипсовых вяжущих в сочетании со специально подобранным портландцементом, суперпластификатором С-3 и смесью отработанного песка (кремнезема) Ташкентского тракторного завода, используемого для форм;

определена норма полимерной эпоксидной смолы ДЭГ-1, предназначенной для целенаправленного регулирования свойств глиногипсовых вяжущих со специально подобранной оптимальной активной минеральной добавкой, а также водостойкость, плотность смеси по отношению к наполнителю и средняя плотность раствора;

